

**Yusupova Maksuda Yuldasbayevna**

Urganch Ranch texnologiya universiteti,

Lingvistika (ingliz tili) 1-kurs magistranti

---

## **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SOMATIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOSLIGI**

**Annotasiya:** Maqolada tilshunoslikda somatik frazeologik birliklarini(SFB) statistik tahlili aniqlandi. SFB faqatgina qadimiy turkiy tildagina emas, balki qardosh bo'lмаган tillar – rus va ingliz tillarida ham ifodalanganligi, shuningdek, agar umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, FBlar ham o'z xususiyatlariga ko'ra lingvistik, tarixiy, milliy va madaniy shaklda tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizmlar, somatik birlik, somatik komponent, konsept.

---

**Kirish.** Jahondagi ko'pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatic frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlarini bildiruvchi so'zlar qatnashgan birlklardir. Aynan somatic frazeologiyada har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari va an'analari o'z aksini topgan bo'ladi.

Tillarda madaniy elementlarni tashuvchi somatik birliklar ishtirok etgan maqollar ko'p sonlidir. Misol uchun,Bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi. O'zi to'ysa ham,ko'zi to'y maydi.Och qornim-tinch qulog'im..A light purse makes a heavy heart. Poor men seek meat for their stomach, rich men stomach for their meat. A long tongue is a sign of a short hand.

Umuman somatik frazeologizmlarni o'rganish, ularning lingvistik tabiatini tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan, deyish mumkin. Tadqiqotlarning bir qismida somatic frazeologizmlar bir til, ba'zilarida ikki til va uch til doirasida qiyosiy o'rganilgan.

O'zbek tilida somatik FBlarning atroficha tadqiqi A.Isayevning "O'zbek tilida somatik frazeologizmlar" nomli nomzodlik dissertatsiyasida yoritilgan. Bu tadqiqot o'zbek tilidagi somatic FBlar tahliliga bag'ishlangan ilk yirik tadqiqotdir. Dissertasiya kirish, uch asosiy bob va xulosadan iborat. Ishning kirish qismida somatic FBlarni o'rganilishi haqida atroficha fikr yuritilgan. Olimning ta'kidlashicha, somatic FBlarni o'rganish yaqin yillardan boshlangan va hozirgacha ularning tahliliga bag'ishlangan faqat V.O.Vakk, O.Nazarov, Yu.A.Dolgopolovlarning nomzodlik dissertatsiyalarigina mavjud. Ammo keying yillarda bu qator Sh.Usmanova, Sh.Nazirova, X.Alimovalarning tadqiqotlari bilan to'ldirildi.

Mazkur nomzodlik dissertatsiya somatic FBlarni diaxron va sinxron aspektlarda o'rganishga bag'ishlabganligi bilan diqqatga sazovordir. IShda olim asosiy e'tiborini FBlarning shakllanishi va ularning component tarkibiga qaratgan. Uning qayd etishicha, o'zbek tilida 1400 ga yaqin somatic komonentli FBlar bor va ular tilde taxminan 17,5 foizni tashkil etadi. Bu vaqtida hali Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" yaratilmagani bois A.Isayev ishda X.Berdiyarovning 8000 dan ziyod top'langan FBlar kartotekasiga asoslanganligi ta'kidlangan.

Tadqiqotimiz doirasida, shaxsning shaxsiy xususiyatlarining kontseptual sohasini tavsiflovchi jihatlarning —tanaviy talqiniga murojaat qilaylik. Ushbu sohada ikkita umumiy toifa ajratiladi, ularni yanada aniq kichik toifalarga bo'lish mumkin. Masalan:

- 1) Shaxsning shaxsiy xususiyatlari: jismoniy xususiyatlar va tashqi xususiyatlar.
- 2) Har xil turdag'i xatti-harakatlar, shu jumladan nutq, iroda, aqliy harakatlar va boshqalarni ifodalovchi soha.

Insonning sog'lig'i, uning jismoniy holati, kuch-quvvati haqida tasavvurga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlari somatik frazeologik birliklar semantikasida mavjud: *to be hale and hearty (especially of old people) healthy and strong: Her grandfather was hale and hearty, walking five miles each day before breakfast.*

Keling, ushbu somatik frazeologik birliklarning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqaylik:

- 1) *hale* – partly from Middle English (northern) *hale*, from Old English *hāl*; partly from Middle English *hail*, from Old Norse *heill* — whole; free from defect, disease, or infirmity; retaining exceptional health and vigor.
- 2) *hearty* – exhibiting vigorous good health.

Shaxsning tashqi ma'lumotlarini tavsiflovchi somatik frazeologik birliklar orasida quyi toifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) inson qomatini tavsiflovchi somatik frazeologik birliklar;
- b) insonning tashqi ma'lumotlari, xusan uning jozibadorligi va go'zalligi haqida tasavvur beradigan somatik frazeologik birliklar. Qizig'i shundaki, inson qaddi-qomatini tavsiflovchi somatik fazeologizmlar ko'pincha —bone va —skin somatik komponentlarini o'z ichiga oladi.

Lingvistik shaklda ifodalangan somatikani tahlil qilish insonning o'z tanasini va uning funksiyalarini qanday tushunishini anglab yetishi uchun kalit bo'lib, bu shaxsning o'zini o'zi bilishiga olib keladi. Inson tanasi o'z-o'zini bilishga bir qator mazmunli xususiyatlarni qo'yadi, ya'ni inson tanasi o'zining faoliyat funksiyalarini, xatti-harakatlarini, ratsional va hissiy sohalarini, bir so'z bilan aytganda, ichki "men"ini - tashqi "men" bilan, tana va tananing qismlari bilan aniqlaydi".

### **Foydalanimanligi adabiyotlar ro'yxati**

1. Эштўхтарова Б.Б. Инглиз ва ўзбек тилларидағи фразеологик бирликларда “Бош” концептининг лингвомаданий хусусияти // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – № 1/3. – Б. 258-261 (10.00.00. № 15).
2. Эштўхтарова Б.Б Инглиз ва ўзбек тилларида “head/бош” компонентли фразеологик бирликларнинг мавзувий гурухлари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – № 1/4. – Б. 277-278 (10.00.00. № 15).
3. Steyer K. Corpus linguistic exploration of modern proverb use and proverb patterns. Computational and corpus-based phraseology: Recent advances and interdisciplinary approaches, Proceedings of the Conference Volume II. – London, UK, Geneva: Editions Tradulex, 2017. – P. 45-52;
4. Babajanov, K., & Sapaeva, D. (2022). MEDICAL DISCOURSE AND ITS COMMUNICATIVE SPECIFICITY. *Science and Innovation*, 1(7), 1394-1396.
5. Маматов А.Э. Ўзбек тили фраземаларининг шаклланиш масалалари. Фил.ф. докт. дис. автореф. – Тошкент, 1999. – 56 б.